



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/9

# TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR

# ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

# EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

# TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

## ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

## EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



**№9/2023**  
**sentyabr**

**Muassis:**

Buxoro davlat universiteti  
Fan va ta'lif MChJ

**Bosh muharrir:** Ma'murov Bahodir  
Baxshullayevich

**Jamoatchilik kengashi raisi:**  
Xamidov Obidjon Xafizovich,  
Buxoro davlat universiteti rektori

**Tahririyat kengashi raisi:**  
Maxmudov Mels Hasanovich

**Mas'ul kotib:** Akramova Gulbahor  
Renatovna

**Texnik muxarrir:** Davronov Ismoil  
Ergashevich

**Tahririyat manzili:**  
Buxoro shahar,  
Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

Telefon:  
+998(90)744-00-22

E-mail:  
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:  
[www.interscience.uz](http://www.interscience.uz)

Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil  
30 sentyabrdagi 306/6-son Qarori bilan  
PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA,  
FILOLOGIYA, TARIX  
FANLARI bo'yicha falsafa doktori  
(PhD) va fan doktori (DSc)  
ilmiy darajasiga talabgorlarning  
dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy  
ilmiy natijalarini chop etish tavsiya  
etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga  
kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2023 y.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5.  
Buyurtma raqami 1.23  
«FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop  
etildi. Buxoro shahar

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami  
bilan O'zbekiston Ommaviy axborot  
vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va  
2 oyda 1 marta chop etildi.  
2021 yil noyabr oyidan boshlab har  
oyda 1 marta o'zbek, rus va ingлиз  
tillarida chop etiladi

«Ta'lif va innovatsion tadqiqotlar»  
xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan  
ko'chirib bosish tahririyatning roziligi  
bilan amalgalashuvlari

Maqolada keltirilgan faktlarning  
to'g'riligi uchun muallif mas'uldir

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

Ҳайитов Ш. А. Бухоролик уч нафар ҲАЗРАТИ ИНСОН тимсоли-уч китоб талқинида	7
Alimova G'. B. Dinning davlatdan ajratilishi tamoyili	9
Ахматов А. Бухорода фаолият юритган аффон адилари	13
Iuldashev U. K. Litva-Rossiya munosabatlarda Kaliningrad muammosi	16
Ибрагимова М. Б. Илк мусулмон жамиятида дипломатик алоқалар (Маъорижун Нубувва асари асосида)	20
Мамадиев Б. Б. Шаҳрисабзнинг қадими ҳаммомлари	28
Mustafoyev J. A. Navoiy oblastida "Paxta ishi" qatag'onini amalgalashuvlari	33
Nazarov Z. Namangan viloyatida davlat, uy muzeylarining vujudga kelishi va turizm rivojидаги о'rni	37
Xadjamuratova M. X. Yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga oid qonunchilik asoslari	42

### 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Almamatova M. Sh. Nofilologik ta'lif yo'naliishi talabalariga ingliz tilini o'rganishda motivatsiyani rivojlantirish	47
Ачилов III. III. Лексик компетенцияни такомиллаштириш бўйича педагогик технологиялар	53
Kaniyazova J. O. The image of old man in karakalpak, uzbek and kyrgyz prose	57
Matekov A. D. K.Shamutovning «Sizlarga aytib ketmoqchiman...» roman-essesining kompozitsiyasi	60
Mansurova F. Linguistic and pragmatic aspects of clarifying learners' brain dominance in successful english language acquisition	63
Mahmudova Kh. R. Analysis of the international experience of television programs on financial literacy	67
Rakhimova I. K. Implementation of worksheet strategy to foster research writing skill	72

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Abdullahayev E. Z. O'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslari	77
Adizova N. B. Zamonaliv ta'lif sharoitida o'qituvchining divergent fikrlashini rivojlanish orqali malakasini oshirish tizimi	81
Aminov A. Sh. Dasturiy ta'lif vositasi yordamida muhandislik kompyuter grafikasi fanining mustaqil ishlarini tashkil etish	86
Arustamyan Y. Y. The role of modern teaching technologies in the process of lecturing	89
Ashurov R. R. Boshlang'ich sinfo'quvchilarini intellektual rivojlantirishning nazariy asoslari	93
Axadova K. S. Raqamlashtirish jarayonida muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash ilmiy muammo sifatida	97
Azamkhonov O. A. Ways of development of speed and strength wrestlers aged 18-20	101
Atoeva M. F. Integratsiyalashgan ta'lif	106
Ахмаджонова Д. Д. Преподавание иностранных языков через онлайн-платформы. Всесторонний обзор и анализ.	109

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

### BUXOROLIK UCh NAFAR HAZRATI INSON TIMSOLI-UCh KITOB TALQINIDA

**Hayitov Shodmon Ahmadovich,  
Buxoro davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 oktyabrdagi “Qatag‘on qurbanlarining merosini chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-5598-soni Farmoyishi va Oliy Majlisga qilgan Murojaatlarda O‘zbekistonda sovet hokimiyati yillarda nohaq nomlari qoralanib, oxir-oqibatda o‘limga mavhum etilgan millatparvarvar yurtdoshlarimiz, taraqqiyparvar insonlar va jadid munavvarlari tarixini chuqur o‘rganish masalasi dolzarb qilib qo‘yildi. Turkiston mintaqasi va O‘zbekiston tarixida Buxoro taraqqiyparvarlik harakati ishtirokchilari, milliy mustaqillik uchun kurash jarayonida turganlarning munosib o‘rni bor.

Jadidchilik va taraqqiyparvarlik harakatida faol ishtirok etgan millatdoshlarimiz taqdiri fojiali kechdi. Ularning bir qismi sovet hokimiyati tazyiq va ta‘qiblardan qiynalib, xorijga, muhajirlikka ketishga majbur bo‘ldilar. Ayrimlar sovet hukumati bilan ochiqdan-ochiq muhorabaga kirishib halok bo‘ldilar. Uchinchi guruh millat fidoiylari mustaqillik, ozodlik, erk va huquq talab qilganlari, shu ezgu maqsadlarga o‘z jonlarini tikanlari evaziga qatag‘on boltasi ostida qatl etildilar. Bunday vatanparvarlar Buxoroda ham oz emasdi. Tarix fanlari doktorlari, professorlar S.I.Inoyatov va Q.K.Rajabovlar tomonidan sabab va xayrli ishga qo‘l urilib, uch buyuk va tabarruk insonlar: Fayzulla Xo‘jaev (1896-1938), Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jaev (1878-1968), Otaulla Xo‘jaev (1880-1938) lar hayoti va faoliyatini o‘zida mujassamlashtirilgan sovet hokimiyati yillarda, mustaqillikning ortga qolgan davrida va ayrim xorijda yozilgan ishlar jamlanmasidan iborat uchta to‘plam yaratildi. Uch kitobdan iborat xarakteridagi birinchi kitob Buxoro jadidchilik harakatining yo‘lboshchilaridan biri, BXShJ va O‘zbekistonSSR hukumati rahbari lavozimlarida halol hamda vijdonan faoliyat yuritgan, oxir-oqibatda 1938 yilda “nemis ayg‘oqchisi”, “Vatan xoini” kabi asossiz ayblar bilan o‘lim jazosiga hukm qilingan Fayzulla Xo‘jaev hayoti va faoliyatiga tegishli ma’lumotlarni o‘zida jamlagan. Kitob sahifalarini varaqlar ekanmiz, turli yillarda Fayzulla Xo‘jaev shaxsiyati, siyosiy faoliyati, huquqiy qarashlari, istiqlol uchun kurashlardagi ishtiroki, publitsistikasi, O‘zbekiston iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy hayotiga qo‘sigan hissasiga oid boy manbalarga ega bo‘lamiz. Ayniqsa, istiqlol yillarda Fayzulla Xo‘jaev fenomeniga qiziqish kuchayganligi, ushbu inson haqida dissertatsiyalar yozilgani, xalqaro, mintaqaviy va Respublika miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazilgani, uning yuz yilligi 1996 yilda nishonlangani, ularning materiallari kitobxonga juda katta ma’naviy ozuqa beradi. F.Xo‘jaev shaxsini o‘rganishda tarixchi olimlardan S.I.Inoyatov, Q.K.Rajabovlar istiqlol yillarda risola va maqolalar yaratib, uning hamon ilmiy jamoatchilikka noma’lum qirralarini ochishga jonbozlik ko‘rsatdilar. Bu borada yosh olimlarning F.Xo‘jaev va BXShJ tarixiga bag‘ishlangan dissertatsiyalarining avtoreferatlari kitobga o‘z holicha kiritilgani ayni muddao bo‘lgan. Bu hukumat qarorlaridan ko‘chirma, arxivlarda saqlanayotgan fotolavhalar ham kitobxonga ancha ma’lumotlar taqdim etadi. Kitobda yurtimizda “Xo‘jaevshunoslik” yuzaga kelganligi, ushbu yo‘nalishda istiqbolda amalga oshirish kerak bo‘lgan ilmiy va amaliy vazifalar dasturi ham belgilab berilgan. F.Xo‘jaevga bag‘ishlangan kitobning yana bir ahamiyati shundaki, istiqbolda mazkur shaxs tarixiga oid tadqiqotlar olib borishga qo‘l urmoqchi bo‘lganlar uchun boy manbaviy asos bo‘la oladi.

Ikkinchi kitob Fayzulla Xo‘jaevning qarindoshi, taqdiri zamondoshlaridan turli xil kechgan umrining yarmidan ko‘pini xorijga yashagan Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jaev Buxoro amirligida ma’rifatchilik, jadidchilik harakatida faol ishtirok etgan. BXShJda bir qator mas’ul vazifalarda ishlagan va BXShJ MIQning birinchi raisi sifatida tarixda nom qoldirgan. Ushbu inson xorijda turib ham milliy istiqlol uchun kurashning oldingi saflarida bo‘lgan. Uning hayoti, Turkiston ozodligi va madaniyati tarixiga qo‘sigan hissasi haqida farzandi-arjumandi professor Temurxo‘ja Usmon Xo‘ja o‘g‘li (1947 yilda Turkiyaning Istanbul shahrida tavallud topgan, Turkiya respublikasi fuqarosi) tomonidan e’lon qilingan ishlar, professorlar S.I.Inoyatov, Q.K.Rajabov, Sh.A.Hayitov, R.T.Shamsutdinovlarning maqola hamda risolalari muhim o‘rin egallagan. Shuningdek farg‘onalik yosh tarixchi olim A.M.Mahmudovning Usmon Xo‘jaga bag‘ishlab yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati ham kitobda



to'liq berilgani ayni muddao bo'lgan. Kitobxon kitob sahifalaridan Usmon Xo'ja siyosiy faoliyati bilan birga, uning matbuotchilik, milliy uyushma va tashkilotlardagi ishtiroki masalalari bilan ham tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Usmon Xo'ja Po'latxo'jaevga qaratilgan ikkinchi kitobda uning shajarasи, ajdod va avlodlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Usmon Xo'ja Po'latxo'jaev hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi va turli arxivlarda saqlanuvchi arxiv hujjatlari, fotolavhalari kitob sahifalaridan o'rin olishi, uni tartibga solishda mualliflar anchagini ter to'kkanaligidan dalolat beradi.

Uchinchi kitob Fayzulla Xo'jaevning amakisi, Usmon Xo'ja Po'latxo'jaevning ukasi, jadidchilik harakati ishtirokchisi, Istanbulda (Turkiya Respublikasi) tahsil olgan Otaulla Xo'jaevga bag'ishlab yozilgan ishlar jamlanmasidan iborat. Otaulla Xo'jaev Usmon Xo'ja Po'latxo'jaev va Fayzulla Xo'jaevlar bilan bir safda turgan, Buxoro mustaqilligiga jonini tikkan shaxslardan biri bo'lgan. Biroq, Otaulla Xo'jaev haqidagi tarixiy haqiqat uzoq yillar aytilmay kelgani, professor Q.K.Rajabov ta'kidlaganidek, uning "unutilgan siymo" ekanligi ma'lum bo'ladi. Uchinchi kitobda asosan mustaqillik yillarida professorlar S.I.Inoyatov, Q.K.Rajabov, yosh tadqiqotchi F.Amonova va Z.Z.Ortiqovlarning maqolalari jamlangan.

Otaulla Xo'jaev BXShJ hukumatida 1920-1923 yillarda Xalq Nozirlar Sho'rosi raisi muovini (bir muddat rais) lavozimida va boshqa ma'sul vazifalarda faoliyat yuritgan. Uning 1937 yilga qadar bo'lgan keyingi hayot yo'li O'zbekistonning turli tashkilotlarida xo'jalik ishlarida faoliyat yuritish bilan bog'liq. Kitobda avlodchilik rishtalari bilan to'g'ridan-to'g'ri Otaulla Xo'jaevga bog'langan professor S.I.Inoyatov (olimning ota tomonidan bobosi) ajdodi haqida hali ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'limgan materiallarni, fotolavhalarni taqdim etishi muhim ahamiyatga molikdir. Kitob bilan tanishish asnosida amin bo'lindiki, Otaulla Xo'jaev shaxsiyati bilan bog'liq ko'p masalalar hamon ochiq qolmoqda. Ushbu insonning padaribuzrukvor Po'latxo'ja yashagan yillar, 1925-1937 yillarda faoliyat olib borilgan tashkilotlardagi ishtirok va h.k. Biroq, uchinchi kitobda Otaulla Xo'jaev bilan bog'liq hamon sir saqlab kelingan "maxfiy grifi" ostida e'lon qilinmay qolib ketgan tergov hujjati materiallarning kiritilishi bundan keyingi bu yo'nalishda ilmiy izlanish olib boradiganlarga ko'p imkoniyatlar yaratilishi shubhasiz.

Tarix fanlari doktorlari, professorlar S.I.Inoyatov va Q.K.Rajabovlarning ilmiy xizmati tufayli nashr yuzini ko'rgan uch yirik kitob bugungi avlodga Buxoroda jadidchilik harakati va milliy ozodlik kurashi tarixidan ogoh bo'lishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu kitoblar orqali uch nafar qatag'onga uchragan milliy fidoiylarining ruhi-poklari shod bo'ldi, ularning insoniy qadr-qimmati o'z joyiga qo'yildi. Shuningdek, ushbu kitoblardagi qimmatli ma'lumotlar Vatan tarixining XIX asr oxiri -XX asr dastlabki o'n yilliklarida murakkab, ziddiyatli, chalkashliklarga bo'lib toshgan sahifalariga aniqlik kiritishga xizmat qilishi kishida hech qanday shubha uyg'otmaydi. Xalqimiz siyosiy ongi va istiqlol mafkurasi mustahkamlashda yuqoridaq kabi nashrlarning roli beqiyosligini hech qachon unutmaslik kerak.

Bu kitoblar chop etilishining yana bir tarixiy jihatni ilmiy maktab yaratgan ikki taniqli olimlar Sulaymon Inoyatovich Inoyatovning 85 yilligi va Qahramon Kenjaevich Rajabovning 60 yilligi nishonlanayotgan kunlarda insonlar qo'liga tegishi nur ustiga a'lo nur bo'ldi. Har ikkala profersorni yana bir bor chin qalbdan qutlab, ularga ijodiy barkamollik va uzoq umr tilayman.

#### Adabiyotlar

Buxorolik qatag'on qilingan uch buyuk siymo: tarix va taqdir (Fayzulla Xo'jaevning hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar 1-kitob, Buxoro: «Durdon» nashriyoti -2023. -580 b; Buxorolik qatag'on qilingan uch buyuk siymo: tarix va taqdir (Usmon Xo'janing hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar 2-kitob, Buxoro: «Sadreddin Salim Buxoriy»; «Durdon» nashriyoti -2023. -448 b; Buxorolik qatag'on qilingan uch buyuk siymo: tarix va taqdir (Otaulla Xo'janing hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar 3-kitob, Buxoro: «Sadreddin Salim Buxoriy»; «Durdon» nashriyoti -2023. -384 b.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi hamda ilmiy muharrirlar: Sulaymon Inoyatov va Qahramon Rajabov -tarix fanlari doktorlari, professorlar. Mas'ul muharrir: Temur Xo'ja o'g'li – professor (Michigan universiteti, AQSh)

Taqrizchilar: Baxtiyor Hasanov, t.f.d. professor; Shodmon Hayitov, t.f.d. professor